

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI XORIJIY
FUQAROLARNI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM MUASSASALARIGA
O‘QISHGA QABUL QILISH VA O‘QITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH
TO‘G‘RISIDA**

Xorijiy davlatlar fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tizimini takomillashtirish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va fan sohasidagi xalqaro shartnomalarini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilab qoyilsinki:

xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, shuningdek jamoaviy va kka tartibdagi (shu jumladan, kelish maqsadidan qat’i nazar, respublikaga haqiqiy vizalar boyicha kelgan xorijiy fuqarolar bilan tuzilgan) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda oldindan kspertizadan va royxatdan otkaziladigan shartnomalar va kontraktlar asosida amalga oshiriladi;

xorijiy fuqarolarni o‘qishga qabul qilish va o‘qitish boyicha barcha ishlarni tashkil tish, oquv-metodik rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish umumta’lim maktablarida — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan, boshqa ta’lim muassasalarida — Oliy va orta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

xorijiy fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga tolov-kontrakt asosida hamda, agar qonun hujjatlari yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tartibda qabul qilinadi.

(1-bandning tortinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 347-sonli qarori tahririda — OR QHT, 2017 y., 23-son, 472-modda)

2. Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibi to‘g‘risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta’lim vazirligi Moli vazirligi va ta’lim muassasalariga ga bo‘lgan boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish boyicha Davlat komissi siga xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida oqiganlik uchun tolov miqdorlari va tartibini, 2008/2009 oquv yiliga xorijiy fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida oqiganligi uchun tolov miqdorini o‘qitishning real xarajatlaridan kelib chiqib, 2 ming AQSh dollaridan 4 ming AQSh dollarigacha miqdorda belgilashni nazarda tutgan holda, tasdiqlash uchun kiritsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda:

xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida o‘qitish zasidan namunaviy shartnoma (kontrakt)larga on kun muddatda zarur o‘zgartirish va qoshimchalar kiritsinlar;

xorijiy fuqarolar uchun til markazlarining zarur darajada ishlashi zasidan doimiy nazorat ornatsinlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolarni o‘qitish to‘g‘risida» 1994-yil 24-maydagi 266-son qarori oz kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta’lim vazirligi Adli vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qoshimchalar to‘g‘risida takliflar kiritsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining orinbosari R.S. Qosimov zimmasiga klansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2008-yil 4 avgust,
169-son

Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 4 avgustdagi 169-son qaroriga ILOVA
Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibi to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibini belgilaydi.
2. Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga, boshqa qonun hujjatlariga va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.
3. Xorijiy fuqarolarni o'qitish umumta'lim maktablari boyicha — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadigan, boshqa ta'lim muassasalari boyicha — Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.
4. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida xorijiy fuqarolarni o'qitish tegishli ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarida nazarda tutilgan tillarda olib boriladi.
5. Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish va o'qitish boyicha barcha ishlarni tashkil tish, oquv-metodik rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish umumta'lim maktablarida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan, boshqa ta'lim muassasalarida — Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

II. O'qishga qabul qilish tartibi, shartlari va o'qitish turlari

6. O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolarni ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish:
 - a) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari;
 - b) O'zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda dastlabki kspertizadan va royxatdan otkaziladigan jamoaviy va shaxsiy shartnomalar hamda kontraktlar (shu jumladan, kelish maqsadlaridan qat'i nazar respublikaga haqiqiy vizalar boyicha kelgan xorijiy fuqarolar bilan tuzilgan) asosida amalga oshiriladi.
7. Xorijiy fuqarolar xohishlariga kora:
 - umumiy orta ma'lumot;
 - orta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
 - oliy ma'lumot;
 - oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'lim olishlari mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.
8. Xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt asosida hamda, agar qonun hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tartibda qabul qilinadi.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyndagi 347-sonli qarori tahririda — OR QHT, 2017 y., 23-son, 472-modda)
9. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida oqish qiymati O'zbekiston Respublikasi Moli vazirligi va ta'lim muassasalariga ga bolgan boshqa vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligining taklifi asosida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish boyicha Davlat komissi si tomonidan belgilanadi.
10. Orta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga umumiy orta ta'lim ma'lumotiga muvofiq bolgan ma'lumotga ga bolgan xorijiy fuqarolar qabul qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

11. Oliy ta'lim muassasalariga umumiy orta yoki orta maxsus, kasb-hunar ta'limi ma'lumotiga muvofiq bo'lgan ma'lumotga ga xorijiy fuqarolar qabul qilinishi mumkin.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-iyndagi 517-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.06.2019 y., 09/19/517/3320-son)

Oldingi tahrirga qarang.

12. Xorijiy fuqarolar oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadigan tartibda otkaziladigan suhbat natijasiga kora qabul qilinadi.

Belgilangan tartibda taqdim tilgan suhbat natijalari O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish boyicha davlat komissi si tomonidan korib chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligining xorijiy fuqarolarni oliy ta'lim muassasasiga oqishga qabul qilish zasidan qaror qabul qilishi uchun asos hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi oliy va orta maxsus ta'lim vazirining buyruqi asosida oliy ta'lim muassasalari rahbarlari oqishga qabul qilish togrisida tegishli buyruq chiqaradilar.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-iyndagi 517-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.06.2019 y., 09/19/517/3320-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13. O'zbekiston Respublikasining ta nch doktoranturasi va doktoranturasiga oliy ma'lumotga muvofiq bo'lgan ma'lumotga ga bo'lgan xorijiy fuqarolar qabul qilinishi mumkin.

(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017 y., 09/17/898/0234-son)

Aspiranturaga kiruvchi xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasida belgilangan talablarga muvofiq tayyorlangan referat yoki 'lon qilingan ishlarining rasmiy ravishda tasdiqlangan royxatini taqdim tishlari kerak.

14. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligi bu rtmanomasiga binoan, belgilangan tartibda xorijiy fuqarolarga vizalar berish va ularning muddatini uzaytirish, shuningdek ularning vaqtincha shash joyi boyicha vaqtincha royxatdan otkazishni va uning muddatini uzaytirishni ta'minlaydi.

15. Oqishni tugatgandan keyin xorijiy fuqarolarga ma'lumoti togrisida belgilangan namunadagi tegishli hujjatlar beriladi.

16. Xorijiy fuqarolar oqish davrida ushbu Nizomning 6-bandida korsatilgan shartnomalar va kontraktlarda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasiga oila a'zolari va boshqa qarindoshlari bilan kelishlari mumkin.

17. Oqish uchun kelgan xorijiy fuqarolar tibbiy tekshiruvdan otadilar. Tibbiy tekshiruvdan otish tartibi va mavjudligi aniqlangan taqdirda O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga oqishga qabul qilish uchun ruxsat berilmaydigan kasalliklar royxati O'zbekiston Respublikasi Soqliqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

III. Hujjatlarning royxati va ularni taqdim tish tartibi

18. Xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga oqishga kirish uchun tegishli ta'lim muassasasiga quyidagi hujjatlarni taqdim tadilar:

oqishga qabul qilish haqida ariza;

Oldingi tahrirga qarang.

organilgan fanlar va ular boyicha imtihonlarda olingan baholar (ballar) korsatilgan ma'lumoti haqidagi hujjatlarning asl nusxalari;

(18-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-dekabrdagi 1001-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017 y., 10/17/1001/0447-son)

Oldingi tahrirga qarang.

referat yoki e'lon qilingan ishlarining rasmiy ravishda tasdiqlangan royxati (ta nch doktoranturaga kiruvchilar uchun);

(18-bandning tortinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017 y., 09/17/898/0234-son)

so'g'ligi to'g'risidagi tibbiy xulosa;

milliy pasport (amaldagi vizasi bilan) yoki tug'ilganlik haqidagi guvohnoma;

4 x 6 sm o'lchamdagi 6 ta fotosurat.

Hujjatlarni taqdim tish va korib chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan yoriqnomaga muvofiq belgilanadi.

IV. Tayorlov oquvi

Oldingi tahrirga qarang.

19. Oliy va orta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga, ta'lim doktorantura, ad' nkturaga, doktoranturaga oqishga kirishni xohlovchi, o'zbek yoki rus tilini bilmaydigan xorijiy fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan tegishli muassasalarda oqitiladi. O'zbek yoki rus tilini O'zbekiston Respublikasidan tashqarida organgan xorijiy fuqarolarga oqishga kirish uchun yo'llanmalar ularning tilni bilishlari boyicha O'zbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda baholanganidan keyin beriladi.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017 y., 09/17/898/0234-son)

20. Umumta'lim maktablariga oqishga kirayotgan xorijiy fuqarolar, zarurat bo'lganda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda, oqiyotgan joyida til organish boyicha tayyorgarlik kursini otaydilar.

21. Til organish boyicha tayyorgarlik tugagach imtihonlar otkaziladi. Imtihonlarni muvaffaqi tli topshirgan xorijiy fuqarolarga belgilangan namunadagi guvohnoma (sertifikat) va oqishga yo'llanma beriladi. Oqish davrida zarur umumta'lim bilimlarini gallay olmagan va til organishga bo'lgan layoqatini namoyon qila olmagan xorijiy fuqarolarga oqish uchun yo'llanma berilmaydi hamda ular royxatdan chiqariladi.

V. O'zbekiston Respublikasida ta'lim ola'etgan xorijiy fuqarolarning huquq va majburi tlari

22. Xorijiy oquvchilar quyidagi huquqlarga ga:

kafedralarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, talabalarning ilmiy jami tlari va togaraklarida qatnashish; ta'lim muassasalarining kutubxonalari, sport komplekslari, klublari va madani t saroylaridan foydalanish;

dam olishning u shtirilgan turlarida qatnashish.

23. Xorijiy oquvchilar quyidagilarga majbur:

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga va boshqa qonun hujjatlariga amal qilish, mahalliy urf-odat va an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, respublikada xorijiy fuqarolarning bo'lishi va harakatlanishi boyicha belgilangan qoidalarni bajarish;

intizomga rio qilish, mashg'ulotlarga qatnashish, oquv rejalari va dasturlarida nazarda tutilgan oquv va ishlab chiqarish ishlarining barcha turlarini bajarish, imtihon va sinovlarni belgilangan muddatlarda topshirish;

ta'lim muassasasining va talabalar yotoqxonasining ichki tartib-qoidalarini bajarish;

ta'lim muassasasi rahbarlarining korsatma va farmoyishlarini bajarish.

24. Oqishda ozlashtirmaslik, intizomni, ta'lim muassasasi va talabalar yotoqxonasining ichki tartib-qoidalarini buzganlik uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga kora xorijiy oquvchilarga nisbatan ta'lim muassasasi royxatidan chiqarib borishgacha bo'lgan ma'muriy choralar korilishi mumkin;

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish qoidalarini buzganlik uchun ular belgilangan tartibda respublikadan tashqariga chiqarib boriladi.

Óqish uchun kelgan xorijiy fuqarolarning zarur mablagʻlari boʻlmagan taqdirda ularni Ózbekiston Respublikasidan chiqarib borish boyicha xarajatlar tegishli ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

25. Ózbekiston Respublikasi hududida jino tosodir tgan xorijiy fuqarolar, agar Ózbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, Ózbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan javobgarlikka tortiladi.

26. Óqishni tugatgan yoki ta'lim muassasalari royxatidan ochirilgan xorijiy fuqarolar bir oy muddatda Ózbekiston Respublikasidan chiqib ketishi shart, Ózbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida, shuningdek jamoaviy va shaxsiy shartnomalar hamda kontraktlarda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

27. Ta'lim muassasalarida oquv yili 2-sentyabrdan boshlanadi. Ta'tillarning boshlanish va tugash vaqti, ularning davom tish muddati muay n ta'lim muassasasining oquv rejalariga muvofiq belgilanadi.

VI. Xorijiy fuqarolarni ushbu Nizom bilan tanishtirish tartibi

28. Ózbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga oqishga kirish istagini bildirgan xorijiy fuqarolar mazkur Nizom bilan tanishtirilishi va ular Nizom talablarini bajarishi to'g'risida o'z majburi tlarini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

(Ózbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toplami, 2008 y., 31-32-son, 304-modda; 2017 y., 23-son, 472-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017 y., 09/17/898/0234-son, 23.12.2017 y., 10/17/1001/0447-son, 21.06.2019 y., 09/19/517/3320-son)